O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

# MAGISTRANTLARNING ILMIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

Samarqand – 2010

Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy-axloqiy tarbiyalashda turli usullar qo'llaniladi. Milliy-axloqiy tarbiya o'qitish jarayoni bilan birga olib borila Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy-axloqiy tarbiyalashda darsni yax tashkillashtirishimiz, ularga milliy-axloqiy tushunchalar, fazilatlar haqida ma'lun berishimiz, dars jarayonida Sharq qadriyatlari va milliy an'analar aks etgan Qur'( Karim, Hadis, «Odobnoma», «Hikmatnoma», Kaykovusning «Qobusnoma», I Sinoning «Donishnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Navoiyning «Mahb ul qulub», Boburning «Boburnoma», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yox axloq» va shu kabi asarlardan namunalar keltirish orqali ularda milliy-axloc fazilatlarni shakllantirishimiz lozim. Yoki dars jarayonida buyuk allomalarimizni o'zlarini ibrat-namuna sifatida keltirib o'tishimiz, ulardagi ham ma'naviy h axloqiy sifatlarni aytib o'tishimiz, shuningdek bu boradagi qimmatli fikrlarini mi keltirib o'quvchilarga tushuntirib berishimiz kerak.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. S bois, men komilman, kamolotga erishdim degan odam xato qiladi. Inson o'z faoliy mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqso kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan ki barkamol insondir. Alisher Navoiyning fikricha, yosh avlodni kamolotga yetkazi deganda, uni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib yetishtiri anglashiladi. Bunda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. U insonda mehnatsevarlik, ins halollik, kamtarlik, himmat va muruvvatpeshalik, fidokorlik, pokiza tabiatlilik, o onaga hurmat kabi fazilatlarni ulug'laydi.

O'quvchilarda milliy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ming yil mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borg Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, payg'ambarimiz Muhammad Sallollohu ala vasallam hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning bc manbai bo'lib xizmat qiladi. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barc qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. Eng asosiysi islomiy odc farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchan, kattalarni, ayniqsa, o onani qilish hurmat ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan.

Hadislarda: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odob ham yaxshilanglar!», «Hyech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq me bera olmaydi», deyilgan.

Darsda, umuman maktabda turli-tuman tadbirlar, adabiy kechalar, bayraml musobaqalar o'tkazish, kinoteatr, televideniye ko'rsatuvlaridan, jumladan «Ota so'zi – aqlning ko'zi», «Bolalar dunyosi», «Ertaklar olamida» kabi ko'rsatuvlard parchalar keltirish ham o'quvchilarni milliy-axloqiy tarbiyalashda muhim o' tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zi maktabda, uyda, ko'chada qanday [illegible] qoidalarini bilib oladilar. Bunday odat ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbi ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdirdagina ta'siri kuc bo'ladi.





Xulosa qilib aytganda, insonning tevarak-atrofdagi voqyea va hodisalarga bo'lgan munosabatida o'quvchilarning milliy-axloqiy tarbiyasi namoyon bo'ladi. Xalqimiz axloqiy fazilatlarni qadim zamonlardan beri boyitib kelgan. Insonning axloqiy qiyofasi butun umri davomida shakllanib boradi. Inson onadan mehnatsevar ham, dangasa ham, johil ham bo'lib tug'ilmaydi - bu va shunga o'xshash axloqiy sifatlar bolani o'rab olgan ijtimoiy muhitning, tarbiyaning ta'siri hisoblanadi.

**Ilmiy rahbar prof. N. Shodiyev.**

## . OSHLANG'ICH SINF MUSIQA DARSLARIDA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISH MUAMMOLARI

*Abdukarimova Elnoza*
*Mutaxassislik: Musiqiy ta'lim metodikasi*

Xalq musiqa san'ati o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalqimizning o'tmishi va bugungi hayotimizni teran anglash, milliy qadriyatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o'rgatishda muhim omildir. Shunday ekan, xalq musiqa merosi, xususan, o'zbek bolalar folklori namunalarini o'quvchi-yoshlarga o'rgatish, shu asosda ularni milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy ong va madaniyatni shakllantirish hozirgi ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma talablari darajasida bo'layaptimi? Viloyatimizdagi umumta'lim maktablari "Musiqa madaniyati" darslarini kuzatishlar, soha mutaxassislari, pedagog-murabbiylar bilan suhbatlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda ulkan tarbiyaviy ahamiyatga molik, o'zida xalq pedagogikasini eng ilg'or g'oyalarini mujassam etgan folklor qo'shiqlaridan dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchi-yoshlarni atroflicha tanishtirib borish ishlarini Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida deb bo'lmaydi. Bu o'rinda jiddiy va o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina bo'lib, ulardan eng asosiylari bizningcha quyidagilardan iborat:

1. Umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan aksariyat musiqa o'qituvchilari xalq musiqa ijodiyotidan yaxshi xabardor emas, xalq musiqasining asl tarbiyaviy mazmuni va mohiyati haqida chuqur bilim va malakaga ega emasligi;

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalari, xususan, bolalar folklor qo'shiqlari bo'yicha zarur manbalarni yetishmasligi yoki umumta'lim maktablarida umuman yo'qligi;

3. Musiqa darslarida hamda darsdan tashqari faoliyatda o'zbek xalq bolalar folklor qo'shiqlaridan o'quvchi-yoshlarni badiiy-estetik tarbiyasida foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni taqchilligidir.

Shuning uchun ham ushbu maqolada umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirshni lozim topdik.

Bolalar folklor qo'shiqlari xalqimizning o'ziga xos hayot faoliyati davomida inson yoshlik davrining muayyan bosqichlariga mos ravishda kichik yoshdagi bolakaylar olami bilan kattalar dunyoqarashining uyg'unlashuvi ostida shakllanib

kelgan. Ular orasida ayniqsa bolalar o'yin-qo'shiqlari alohida ajralib turadi. O' xalq musiqa merosida bunday qo'shiqlar juda ko'p. "Boychechak", "Ramaz "Zuv-zuv borag'ay", "Choriy-chanbar", "Chittigul", "Oq terakmi-ko'k te "Chillak", "Kim oladiya-shuginaniya", "Lanka", "Quyon", "Chuchvara qayna kabi qo'shiqlar ijro xususiyatiga ko'ra kuylash bilan birga biror-bir jism harakatlarni bajarish orqali ijro etiladi. Bunday qo'shiqlarni ijro etish davor o'quvchi-yoshlarda qo'shiq kuylash malakalari bilan birga chaqqonlik, sabr-t chidamlilik, topqirlik va maqsadga intilish hislatlari shakllanadi. Qo'shiqlar g'oyaviy-badiiy mazmuni esa yoshlarda estetik madaniyatni tarkib topishiga xi qiladi.

Shu o'rinda I.Qudratov, N.Tolliboyevlar tomonidan chiqari "Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish" n uslubiy qo'llanmasidagi (O'zbekiston Respublikasi, "FAN" nashriyoti, 2007 folklor qo'shiqlaridan ikkitasini o'rgatish holatini keltirib o'tamiz:

1. "Choriy-chanbar". Bu bolalar folklor qo'shig'ini ijro etish h quyidagicha:

- bolalar davra qurib, oyoqlarini oldinga cho'zib o'tiradilar. Boshlo qo'shiqni kuylay turib barmog'i uchini bolalar oyoqlariga tekkizib sana Sanoqning oxiri kimda to'xtasa, shu bola boshlovchining u yoki bu shartini baja (raqsga tushadi, bir oyoqda turadi va hokazo).

2. "Oq terakmi-ko'k terak". Bolalar teng ikki guruhga bo'linib, ma' masofada qo'l ushlashib turadilar. O'yin shartiga ko'ra bir tomon "Oq terakmi-k terak, bizdan sizga kim kerak?" deb kuylashadi. Qarshi tomondagilar esa boshlo guruhdan bir bolani ismini aytishadi. Ismi tilga olingan bola yugurib qarshi guruhd bolalar zanjirini yorib o'tishga harakat qiladi. Yorib o'tsa g'olib sifatida bir bolani guruhiga yetaklab keladi. O'yin shu tariqa bir guruh yutgancha (bir guruhda bir b qolguncha) davom etadi.

Afsuski, mana shu qo'llanmani ham umumta'lim maktablarida uchratma Folklor qo'shiqlari hamma joyda mahalliy aholi umummadaniyatining o'ziga ko'zgusi sifatida avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan. Ular haqida maxsus to'plam uslubiy qo'llanmalar chiqarish va umumta'lim maktablarida o'quvchi-yos tarbiyasida foydalanish har bir musiqa o'qituvchisining kundalik vazifa aylanmog'i bugungi kunning talabidir.

## Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Sharq nashriyot – matbaa konserni, -1999-yil.

2. Qosimov N. Musiqa folklor ijrochiligi. –T.: G'afur G'ulom nomid nashriyot – matbaa ijodiy uyi, -2003-yil.

3. I.Qudratov, N.Tolliboyev. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'zbek x qo'shiqlarini o'rgatish. –T.: "FAN" nashriyoti, -2007-yil.

4. S.Yo'ldosheva. Xalq urf-odatlari va an'analari. –T.: "Ijod dunyo nashriyot uyi, -2003-yil.

**Ilmiy rahbar: dos. Tolliboyev N.**